

**ICHKI ISHLAR ORGANLARI TEZKOR BO‘LINMALARINING  
VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGIGA QARSHI  
KURASHISHDAGI DOLZARB VAZIFALARI**

Ravshan Irkinovich Sultanxodjaev

IIV Akademiyasi Oliy ta’limdan keyingi ta’lim

fakultetining mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:**

Maqolada voyaga yetmaganlar, ular tomonidan sodir etiladigan jinoyat turlarni, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining yuzaga kelib sabab va sharoitlari, bu turdagi jinoyatlarni oldini olishning tushunchalari, ichki ishlar organlari tezkor bo‘linmalarining voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga qarshi kurashishdagi dolzarb vazifalari to‘g‘risida fikrlar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** voyaga yetmaganlar, voyaga yetmaganlar jinoyati, huquq, konvensiya, qonun, qaror, kodeks, ichki ishlar organlari, tezkor bo‘linmalar, jinoyatchilikka qarshi kurashish, tezkor-qidiruv profilaktikasi, vazifa.

Султанходжаев Равшан Иркинович

Соискатель факультета послевузовского образования Академии МВД

Республики Узбекистан

**Аннотация:**

в статье рассматриваются вопросы, связанные с несовершеннолетними, видами совершаемых ими преступлений, причинами и условиями возникновения преступности несовершеннолетних, концепциями предупреждения данного вида преступлений, а также актуальными задачами оперативных подразделений органов внутренних дел в борьбе с преступностью несовершеннолетних.

**Ключевые слова:** несовершеннолетние, преступность несовершеннолетних, право, конвенция, закон, постановление, кодекс, органы внутренних дел,



оперативные подразделения, борьба с преступностью, оперативно-розыскная профилактика, задача.

Ravshan Irkinovich Sultanxodjaev

Independent candidate of the post-graduate education  
faculty of the mia Academy of the Republic of Uzbekistan

**Abstract:**

This article examines issues related to juveniles, including the types of crimes they commit, the causes and conditions contributing to juvenile delinquency, concepts for preventing such crimes, as well as the current tasks of operational units within internal affairs agencies in combating juvenile delinquency.

**Keywords:** juveniles, juvenile delinquency, law, convention, legislation, decree, code, internal affairs agencies, operational units, crime prevention, operational-investigative prevention, task.

Yangi O‘zbekistonda hozirgi kunda sodir bo‘layotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa sohadagi islohotlarning barchasi yurtimiz fuqarolarining manfaatlari hamda demokratik jamiyat qurish yo‘lida amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilab berilgan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 19-maqsadida jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish zarurligi alohida ko‘rsatib o‘tilgan [1]. O‘zbekistonda BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasining talablariga rioya etilishini ta‘minlash, bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, xususan, oilada ham ularning huquq va erkinliklarini ta‘minlash, bolalarga nisbatan oilaviy muhitdagi huquqlarini himoyaga qilishga doir xalqaro standartlarni implementatsiya qilish masalalariga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda [2].

Mazkur masalaning dolzarbligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida shu jumladan e‘tirof etib o‘tgan: “Umuman har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta‘minlaydigan yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu sababli biz



islohotlarimi ko‘lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz” [3].

Bugungi kunda dunyoda yuzaga kelayotgan xavf-xatar va tahdidlar, avvalo, qasddan odam o‘ldirish, bosqinchilik, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, yoshlar o‘rtasida ayniqsa voyaga yetmaganlar o‘rtasida xalqimizga yot g‘oyalarning tarqalishi ichki ishlar organlari oldiga o‘z vaqtida ularning oldini olish va ularga barham berish bo‘yicha yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Tezkor-qidiruv faoliyatini vazifalarni hal qilish maqsadida tezkor bo‘linmalar tomonidan shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga tahdid solayotgan shaxslar, hodisalar, harakatlar (harakatsizlik) haqida axborot to‘playdi. Huquqni muhofaza qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biri jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘lib, u o‘z navbatida bir necha turdan iborat bo‘ladi. Uyushgan guruhlar tomonidan sodir etilgan barcha og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarning tez va to‘liq fosh etilishini boshqaruvini tashkil etish hamda huquqni muhofaza qilish organlarining barcha mavjud kuch va vositalaridan samarali foydalanishga bog‘liq bo‘ladi. Jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish faqat davlat tomonidan maxsus kuchlar, vositalar, shakllar va usullardan har tomonlama foydalanish orqali amalga oshirish mumkin hisoblanadi [4].

O‘zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentyabrdagi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasida voyaga yetmagan –o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxs deb tushunchasi berilgan [5]. Xuddi shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasiga ko‘ra “huquqbuzarlik –sodir etilganligi uchun ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g‘ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik)” dir.

Jinoyatning sabablari, birinchidan, shaxsning o‘zi, uning dunyoqarashi, qiziqishlari, jamiyat va davlatga, yon-atrofidagi kishilar va oilaga munosabati, unda salbiy sifatlarning shakllanishi va kuchayishi; ikkinchidan – shaxs tarbiyalangan, voyaga yetgan oilaviy va ijtimoiy muhit; uchinchidan –jinoyat sodir etilgan vaqtdagi sharoit, vaziyatga e‘tibor beriladi, deyiladi.

Keltirilgan uch sababning ikkitasi ota-onalarga bog‘liq bo‘ladi. Shaxsning dunyoqarashi, qiziqishlari, jamiyat va davlatga, yon-atrofidagi kishilar va oilaga munosabati, unda salbiy sifatlarning shakllanishi va kuchayishi, shaxs



tarbiyalangan, voyaga yetgan oilaviy va ijtimoiy muhit bularning barchasi sabablar sifatida qaraladi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi umumiy jinoyatchilikdek aynan ijtimoiy hodisa, chunki aynan ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar tufayli paydo bo'lgan sharoitlar natijasida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi oshmoqda. So'ngi vaqtlarda ko'pgina oilalarda voyaga yetmaganlar tarbiyasiga e'tibor susaydi, natijada shu oilalardan chiqqan voyaga yetmaganlar kelajakka ishonch tuyg'usini yo'qotishadi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishni jinoyat huquqiy choralar vositasida ta'sir ko'rsatish bilan qo'shib olib borish o'sib kelayotgan avlodni ma'naviy sog'lig'ini muhofaza qilishning sharti hisoblanadi. Voyaga yetmaganlar javobgarligi – 18 yoshga to'lmasdan jinoyat sodir qilgan shaxslarning javobgarligi, jinoyat qonuniga binoan tayinlanadigan, qat'iy cheklangan jazo turlari. O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunida voyaga yetmaganlar sodir etadigan jinoyatlarning o'ziga xos xususiyatlari va boshqa holatlari e'tiborga olinib, alohida javobgarlik belgilangan. Bular: a) jarima; b) axloq tuzatish ishlari; v) qamoq; g) ozodlikdan mahrum qilish jazolaridan biridir. Ular jinoyatning turi va xarakteriga qarab tayinlanadi va voyaga yetmaganlarga nisbatan jazoning boshqa turlari, qo'shimcha jazolar tayinlanishi mumkin emas (O'zR JK, 81-modda)[6].

Yuqorida qayd etilganlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi va oldini olish mavzusini tahlil qilishning zarurati va ahamiyatini ochib beradi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining omillari sifatida quyidagilar qayd etiladi: nazoratsizlik; umumiy ta'lim maktablari va kollejlarda ta'lim-tarbiya ishlarida mavjud kamchiliklar; ishga joylashtirishda hamda ishlab chiqarishda tarbiya ishlarini tashkil etishda mavjud kamchiliklar; madaniy hordiq chiqarishni tashkil etishdagi kamchiliklar; voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish hamda unga qarshi bevosita kurash olib borish vazifalari zimmasiga yuklangan organlar faoliyatidagi kamchiliklar.

Ayrimlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sabablari qatoriga quyidagilarni kiritadi: o'smirning kayfiyati va ruhiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi hayotdagi muvaffaqiyatsizliklar; ma'naviy va axloqiy mo'ljallarning beqarorligi; shaxslar jinoiy guruhi bilan yaqin aloqada bo'lish yoki muayyan sharoitda ular o'smirga salbiy ta'sir ko'rsatishi; ruhiyatining ayrim xususiyatlari; oila yoki jamoadagi noqulay shart-sharoitlar.



Bundan tashqari, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan turli xil huquqbuzarliklarga, birinchi navbatda, o'sha shaxsda huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyatning yetishmasligi ham sababdir. Huquqiy ongi, tarbiyasi va huquqiy madaniyati yetuk bo'lmagan voyaga yetmagan shaxs jamiyatda amalga oshirayotgan ayrim salbiy harakatlarni huquqbuzarlik ekanligini tushunmaydi. Masalan, voyaga yetmagan o'smir mayda o'g'irlik huquqbuzarlik ekanligini, buning oqibatida javobgarlik masalasi borligini huquqiy ongi huquqiy madaniyati yetishmasligi va huquqiy tarbiyaga ega emasligi uchun bilmaydi. Natijada ana shunday mayda huquqbuzarliklar o'rni katta jinoyatlar egallaydi.

Shuning uchun jamiyatimizda ro'y berayotgan huquqiy o'zgarishlar va huquqiy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan masalalar yoshlarga o'z vaqtida yetib borishi kerak. Ya'ni, yoshlar jinoyat sodir etgandan keyin emas, balki shaxsning jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida bu borada ko'plab ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Sir emaski, o'smirlar bu boradagi jinoiy javobgarlik, jazo choralari to'g'risidagi ma'lumotlarni faqat jinoyat sodir etganlaridan keyingina huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlaridan eshitib, tushunib olishadi.

Davlatimiz voyaga yetmaganlarning ta'lim-tarbiya masalalariga katta e'tibor qaratib, hatto jamiyatning deyarli barcha jabhalari singari huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini ham mazkur jarayonga jalb kilishda ko'plab ijobiy ishlarni amalga oshirmoqda, lekin shu bilan birga voyaga yetmaganlar ishtirokida sodir qilinayotgan jinoyatlar soni kamaymayotgani achinarli holdir. Ya'ni voyaga yetmaganlar ishtirokida sodir qilinayotgan jinoyatlar bo'yicha statistik ma'lumotlarga murojaat qiladigan bo'lsak, mazkur holat yuzasidan ham ko'plab ishlarni amalga oshirish lozimligiga amin bo'lamiz [7].

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sharoiti deganda ular sodir etadigan jinoyatlarning paydo bo'lishi, o'zgarishi yoki barham topishi bilan bog'liq omillar yig'indisi tushuniladi. Mazkur sharoit hisoblanuvchi imkoniyatlarning (omillarning) haqiqatga aylanishini ta'minlovchi, ya'ni oqibatni keltirib chiqaruvchi element sabab hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, huquqbuzarligini aniqlashda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy strukturasi, mazkur strukturani keltirib chiqaradigan aloqa va munosabatlar bilan birga jamiyatning axloqiy – tarbiyaviy muhiti, voyaga yetmaganlar ijtimoiy – ruhiy holatining o'ziga xosliklari alohida e'tiborga olinishi mumkin.





Umumiy olib qaraganda, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sabablari katta yoshdagilar jinoyatchiligiga ta'sir qiladigan sabablar hisoblanadi.

Kriminologik olimlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sabablari sifatida quyidagi holatlarni ko'rsatib o'tadilar:

- oiladagi va turmushdagi salbiy ta'sirlar;
- nosog'lom turmush tarzi;
- yomon xulqli shaxslar bilan aloqada bo'lish;
- hech qaerda o'qimaydigan, voyaga yetmaganlarning uzoq vaqt mobaynida muayyan foydali mashg'ulot bilan shug'ullanmaganligi;
- o'smirning noto'g'ri qabul qilishga sabab bo'ladigan holatlarning voyaga yetmagan shaxsida juda qiyin kechishi;
- katta yoshdagi jinoyatchilar tomonidan huquqbuzarliklarga va turli g'ayriijtimoiy xatti- harakatlarga jalb qilinishi;
- zo'ravonlik aks ettirilgan turli kitob va videofilmlarning ta'siri;
- hayotdagi omadsizliklar va axloqiy e'tiqodlarning turg'un emasligi;
- ruhiy holatdagi ayrim sifatlar;
- ayrim harakatlarga nisbatan romantik qarashlar va shunday harakatlarni sodir etishga moyillikning kuchayishidir.

**Voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilgan jinoyatlarga quyidagilar sabab bo'lmoqda:**

- farzandlar tarbiyasi bilan ota-onalar yetarli darajada shug'ullanmasligi;
- oiladagi doimiy janjallar;
- huquqiy bilimlarning sayozligi;
- oilada ajralishning salbiy ta'siri;
- voyaga yetmagan bolalarning ko'p hollarda jinoyatchi guruhlar safiga kirib qolayotganligi.

**Yuqoridagilardan kelib, voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha ushbu tavsiyalarni berishni lozim deb bilamiz:**

Mahallalarda sog'lom muhitni yuzaga keltirish tadbirlarini olib borishni tashkil etish;

Huquqbuzarlik, jinoyat qilishga moyil va tarbiyasi og'ir bo'lgan voyaga yetmaganlarni aniqlab, ularning qiziqishlari, iqtidorlariga qarab har xil to'garaklarga jalb qilish;



Mahalla faollarining har bir voyaga yetmaganlar oilasining ijtimoiy-psixologik muhitidan xabardor bo'lishini ta'minlash;

Voyaga yetmaganlarni mahalla jamoatchilik ishlariga, turli xil o'tkaziladigan tadbirlarga, mahalla ijtimoiy hayotiga keng ravishda jalb etish;

Yoshlarni tibbiy, psixologik, tarbiyaviy, huquqiy, ma'naviy — ma'rifiy sohalardagi ma'lumotlar bilan qurollantirish maqsadida mahallada maxsus tadbirlarni uyushtirish;

Tarbiyasi "og'ir", huquqbuzarlikka moyil voyaga yetmaganlarning ota-onalari, mahalla, ta'lim muassasalari va voyaga yetmaganlar komissiyalarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini yo'lga qo'yish;

O'smirlarning qiziqishi, qobiliyati va aql-zakovatini hisobga olgan holda ijtimoiy faoliyatga tortish, ularning o'smirlar guruhlarini va jamoatchilik orasida o'z o'rinlarini topa olishga ko'maklashish;

Mahallada istiqomat qilayotgan voyaga yetmaganlarning bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazayotganliklarini maktab, ota-onalar bilan hamkorlikda nazorat qilish;

Oilalari hayotida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish;

Moddiy-maishiy sharoitning yetarli emasligi voyaga yetmaganlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga ta'sir etishini hisobga olib, bunday oilalarga mahalliy hokimiyat, ijtimoiy ta'minot idoralari va xayriya jamg'armalari tomonidan moddiy yordamlar berib turishni tashkil etish.

**Ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalari tomonidan voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatlarni oldini olish, qarshi kurashishga doir faoliyatning asosiy vazifalari quyidagilar deb hisoblaymiz:**

-voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatlarga oid ma'lumotni to'plash, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish hamda ma'lumotlardan jinoyatlarni oldini olishda foydalanish;

- voyaga yetmaganlarni jinoyat yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir qilishga jalb etish holatlarini aniqlash va ularga barham berish;

- voyaga yetmagan jinoyat sodir etishga moyil shaxslarni xatti-harakatlarini doimiy ravishda nazoratga va tezkor kuzatuvga olish. Ularni jinoyatga jalb etishi mumkin bo'lgan shaxslarni shaxsini aniqlash. Bunda shaxsni aynanlashtirishga ilgari aynanlashtirilayotgan ob'ektni (jabrlanuvchilar, shohidlar, shuningdek huquqni muhofaza qiluvchi organlariga ko'maklashuvchi shaxslarni) kuzatgan fuqarolar albatta jalb etilishlari lozim.



- voyaga yetmaganlar nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olish, ularga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

- voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash;

-voyaga yetmaganlar shaxslarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish;

-davlat organlari va tashkilotlarning voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatlarni tezkor-qidiruv profilaktikasini o'tkazish, shuningdek jinoyat sodir etish sabablari va bunga imkon beruvchi shart-sharoitlarni aniqlashdagi sohaviy xizmatlar bilan o'zaro hamkorligini yaxshilash yuzasidan choralarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

-voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olish, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan choralarni baholash, monitoring qilish va samaradorligini oshirish;

-tizimli kamchiliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish hamda ularni huquqni qo'llash amaliyoti va qonun hujjatlarini takomillashtirish yo'li bilan bartaraf etish;

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi" PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>. (murojaat sanasi 03.09.2024y)
2. Zoirova I.F. Voyaga yetmaganlar viktimologiyasi: kelib chiqish sabablari, muammo va huquqiy yechimlar. Magis.diss. 2022.B-5.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasi. <http://president.uz/uz/lists/view/4057> (murojaat sanasi 03.09.2024y)
4. Bekmurodov N.N. tezkor-qidiruv faoliyatini natijalaridan jinoyat ishlari bo'yicha isbot sifatida foydalanishdagi ayrim muammolar. Huquqiy tadqiqotlar jurnali. <https://tadqiqot.uz/index.php/law/article/view/4951/4693> (murojaat sanasi 05.09.2024y)
5. O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentyabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-263-son (murojaat sanasi 05.09.2024y)





6. Eshmurodov E. Voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilgan huquqbuzarliklarning nazariy va amaliy muammolari. In Science. Jamiyat va innovatsiyalar – Obshество i innovatsii – Society and innovations Issue -1, №01 (2020) / ISSN 2181-1415. [https://www.researchgate.net/publication/348635837\\_Voaga\\_etmaganlar\\_urtasida\\_sodir\\_etilgan\\_ukukbuzarliklarning\\_nazarij\\_va\\_amalij\\_muammolari](https://www.researchgate.net/publication/348635837_Voaga_etmaganlar_urtasida_sodir_etilgan_ukukbuzarliklarning_nazarij_va_amalij_muammolari). (murojaat sanasi 01.09.2024y)
7. Kurambaev T. X., Muzaffarov Q.J. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan o'g'irlik jinoyatlarni tergov qilishni takomillashtirish. In Academy.uz. <https://in-academy.uz/index.php/zdif/article/download/30558/19554/30416> (murojaat sanasi 28.08.2024y).

